



### 3. YETKAZIB BERSH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Sotuvchi»ning omboridan yoki unga qarashli yoqilg'i quyush shaxobchalaridan «Iste'molchi»ning buyurmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirilganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganiga yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standardi talabiga javob bershni shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Sotuvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtosistemalar (Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xohlatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Sotuvchi»ning yoki uning bo'limlari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2517-2012 davlat standartiga) mos tarzda tang'alanadi.

3.4. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Sotuvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib bershining boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

### 4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va haqiqiy molli mollarni miqdor jixandan qabul qilish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va haqiqiy molli mollarni sifat jixandan qabul qilish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuridqonmalar hamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amaldagi oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayoigan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Sotuvchi»ning omborida yoki unga qarashli AYOQShda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilish oladi. Eganlik xusquqi, tasoddiy nohud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi «Sotuvchi» ombori yoki AYOQSh hududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

### 5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib bershni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan hujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifati, shuningdek sifat pasportini talab qilish huquqiga ega.

### 6. TOMONLARINING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarimganliklari yoki lozim darajada bajarimganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yuriduvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladi.

6.2. «Sotuvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtda yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Sotuvchi» neft mahsulotlari sifati o'z hisobidan tiklab bersh bilan bir vaqtda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsulotini qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Sotuvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

### 7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birtarasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarimgan yoki lozim darajada bajarimgan va bunga fors-majur holatlar, ya'ni yong'in bo'lmaydigan kuch (tavqutda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qirg'og'qachilik, suv tashqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) sabab bo'lganligini isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

### 8. BOSHQA SHARTLAR

8.1 Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday niza va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishmovchiga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar orqali hal etiladi.